

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 281 147,4 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 10,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yil narxlariiga nisbatan 118,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 19,3 % ga yetdi.

## 2024- yil uchun Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



110,4 %

281 147,4 mlrd so'm



118,4 %

19,3 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mird so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>215 099,2</b>	<b>281 147,4</b>	<b>110,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	198 239,1	258 381,4	110,3
mahsulotlarga sof soliqlar	16 860,1	22 766,0	110,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>198 239,1</b>	<b>258 381,4</b>	<b>110,3</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>76 640,9</b>	<b>95 522,3</b>	<b>108,6</b>
sanoat	55 992,7	71 867,8	108,1
qurilish	20 648,2	23 654,5	109,9
<b>xizmatlar</b>	<b>121 598,2</b>	<b>162 859,1</b>	<b>111,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	37 439,4	44 377,1	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	29 356,9	42 489,8	123,7
boshqa xizmat tarmoqlari	54 801,9	75 992,2	107,2



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 91 376,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 7,6 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



**2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,2	91,9
mahsulotlarga sof soliqlar	7,8	8,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat</b> <b>(qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>38,6</b>	<b>37,0</b>
sanoat	28,2	27,8
qurilish	10,4	9,2
<b>xizmatlar</b>	<b>61,4</b>	<b>63,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,9	17,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	14,8	16,4
boshqa xizmat tarmoqlari	27,7	29,4




2024-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiylashtirilganda 91,9 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,1 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,8 %ni, qurilish 9,2%ni va xizmatlar sohasi 63,0 %ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

**2023- yil**



**2024- yil**



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,1 f.p. (2023- yilda – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2023- yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,5 f.p. (2023- yilda – 6,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,9 f.p. (2023- yilda – 0,7 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi


(jamiga nisbatan % da)

### YAHM



10,4 %

### Qurilish



0,9 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar



0,9 %

### Sanoat



2,1 %

### Xizmatlar




6,5 %

2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 108,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,8 %), qurilishda – 109,9 % (9,2 %), xizmatlar sohasida – 111,5 % ni (63,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,1 % (17,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 123,7 % (16,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 % dan (29,4 %) iborat bo'ldi.

**2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.




2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 118,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 118,8 % va xizmatlarda – 120,2 % qayd etildi.

**2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 135 331,1 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 102 561,4 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 52,4 % ni (2023- yilda - 51,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd so‘m

Ulushi, % da



2023- yil

102 561,4

51,7 %

2024- yil

135 331,1

52,4 %

